XALQ DEPUTATLARI SO‘X TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Cўх тумани А.Темур -95 +998 73 462 5054

2025-yil 8-avgust VI-12-75-11-159-K/25 So‘x tumani

So‘x tumanihududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2025-yil 13-maydagi 67-11-159-F/25-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Farg‘ona viloyati So‘x tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharcha va qishloqlarining umumiy perimetri **270041,66** metr umumiy maydoni **22479,69** gektar ekanligi aniqlandi

Jumladan:

Qala shaharchasi umumiy perimetri **4415,50** metr, umumiy maydoni **60,67** gektar;

Ravon shaharchasi umumiy perimetri **8511,36** metr, umumiy maydoni **159,03** gektar;

Sarikanda shaharchasi umumiy perimetri **6099,24** metr, umumiy maydoni **146,23** gektar;

So‘x shaharchasi umumiy perimetri **6308,48** metr, umumiy maydoni **74,68** gektar;

Tul shaharchasi umumiy perimetri 1**0745,89** metr, umumiy maydoni **168,42** gektar;

Xushyor shaharchasi umumiy perimetri **7549,42** metr, umumiy maydoni **126,29** gektar;

Yangiariq shaharchasi umumiy perimetri **6608,43** metr, umumiy maydoni **134,91** gektar;

Ozod qishlog'i umumiy perimetri **63275,31** metr, umumiy maydoni **11111,00** gektar;

Rovon qishlog'i umumiy perimetri **70469,32** metr, umumiy maydoni **4610,57** gektar;

So`x qishlog'i umumiy perimetri **42593,25** metr, umumiy maydoni **3916,11** gektar;

Xushyor qishlog‘i umumiy perimetri **44022,77** metr, umumiy maydoni **1971,79** gektar;

So‘x tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlariaks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining So‘x tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlari palatasining So‘x tumani filiali rahbari v.v.b **R.Vohidovning** So‘x tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan So‘x tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 10-iyul 2025-yil sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. So‘x tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi matbuot xizmati A.Jurayevga ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4.Ushbu qarorning tasdig‘i Farg‘onaviloyati Xalq deputatlari Kengashidan so‘ralsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari I.Tojiboyev, M.Mavlonbekov, S.Murzoyev, A.Safarov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi

SAYIDMUSAYEV
SAYIDBAXROM
SAYIDBURXONOVICH

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2025-yil 8-avgustdagi
VI-12-75-11-159-K/25 -son qaroriga
1-ilova

So‘x tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ’ L U M O T

T.r	Shahar, Shaharcha va qishloqlar nomlari	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
	Shaharchalar		
1	Qala shaharchasi	4415,50	60,67
2	Rovon shaharchasi	8511,36	159,03
3	Sarikanda shaharchasi	6099,24	146,23
4	So`x shaharchasi	6308,48	74,68
5	Tul shaharchasi	10745,89	168,42
6	Xushyor shaharchasi	7549,42	126,29
7	Yangiariq shaharchasi	6608,43	134,91
7	**Jami**	**50238,32**	**870,22**
	Qishloqlar		
1	Ozod qishlog‘i	63275,31	11111,00
2	Rovon qishlog‘i	70469,32	4610,57
3	So`x qishlog‘i	42593,25	3916,11
4	Xushyor qishlog‘i	44022,77	1971,79
4	**Jami**	**220360,64**	**21609,46**
11	**Tuman bo‘yicha jami**	**270598,95**	**22479,69**

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2025-yil 8-avgustdagi
VI-12-75-11-159-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Farg`ona viloyati So`x tumanining shahar, shaharchalar va qishloqlar chegara chizig`ining kartografik CHIZMASI

